



THE CULTURAL ECONOMIC, AND SOCIAL SYSTEM INFLUENCING THE SOCIAL BEHAVIOR OF YOUTH IN EXTREME SITUATIONS

Dadaxon Valijonov

*Independent Researcher at National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: extreme situations, youth behavior, cultural system, economic factors, social system, psychological stability, social adaptation, risk society.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article delves into the interaction of factors-cultural values, economic conditions and social systems — affecting the social behavior of young people in the context of extreme situations. The study demonstrated that social institutional support, the level of economic stability and the cultural environment in society are the main factors that determine how young people react to extreme situations. The article analyzes the behavior of young people in the cross section of various social groups and regions, identifying factors affecting psychological flexibility, social trust and an active civic position.

EKSTREMAL VAZIYATLARDA YOSHLARNING IJTIMOIIY XULQ-ATVORIGA TA'SIR QILUVCHI MADANIY, IQTISODIY VA IJTIMOIIY TIZIMI

Dadaxon Valijonov

mustaqil izlanuvchi

O'ZMU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekstremal vaziyatlar, yoshlar xulq-atvori, madaniy tizim, iqtisodiy omillar, ijtimoiy tizim, psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, xavf jamiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekstremal vaziyatlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar — madaniy qadriyatlar, iqtisodiy sharoit va ijtimoiy tizimlarning o'zaro ta'siri chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda ijtimoiy institutsional qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy barqarorlik

darajasi hamda jamiyatdagi madaniy muhit yoshlarning ekstremal holatlarga qanday munosabatda bo'lishini belgilab beruvchi asosiy omillar ekani isbotlangan. Maqolada turli ijtimoiy guruhlar va hududlar kesimida yoshlarning xatti-harakati tahlil qilinib, psixologik moslashuvchanlik, ijtimoiy ishonch va faol fuqarolik pozitsiyasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

КУЛЬТУРНАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ СИСТЕМА, ВЛИЯЮЩАЯ НА СОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Дадахон Валиджонов

Независимый исследователь

Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экстремальные ситуации, поведение молодежи, культурная система, экономические факторы, социальная система, психологическая стабильность, социальная адаптация, общество риска.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются факторы, влияющие на социальное поведение молодежи в условиях экстремальных ситуаций-взаимодействие культурных ценностей, экономических условий и социальных систем. В исследовании было показано, что социальная институциональная поддержка, уровень экономической стабильности, а также культурная среда в обществе являются ключевыми факторами, определяющими, как молодые люди реагируют на экстремальные ситуации. В статье проанализировано поведение молодежи в разрезе различных социальных групп и территорий и определены факторы, влияющие на психологическую гибкость, социальную уверенность и активную гражданскую позицию.

Kirish

Zamonaviy jamiyat tobora murakkablashib borayotgan sharoitida yosh avlodning ijtimoiy xulq-atvori ya'ni ularning hayotga, jamiyatga, mehnatga, ta'limga va o'zaro munosabatlarga bo'lgan yondashuvi doimo olimlar, siyosatchilar, o'qituvchilar va ota-onalar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar yoki harbiy mojarolar kabi ekstremal vaziyatlarda yoshlarning xatti-harakati, qaror qabul qilish uslubi va ijtimoiy moslashuvchanligi keskin o'zgarishga uchrashi mumkin. Bunday holatlarda madaniy qadriyatlar,

iqtisodiy holat va ijtimoiy tizimlar yoshlar ruhiyati va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng muhim omillarga aylanadi.

Ekstremal holatlarga duch kelgan shaxslar uchun ko'rsatiladigan tezkor psixologik yordam modeli — bu psixologning ma'lum bosqichlarga asoslangan harakatlar tizimini tashkil qiluvchi, o'ziga xos struktura va mexanizmlarga ega bo'lgan tizimdir. Bunday modelni ishlab chiqishdan ko'zlangan asosiy maqsad — uning ichki tarkibiy xususiyatlari va amal qilish tamoyillarini batafsil ta'riflashdan iboratdir.

Madaniyat bu inson ongida, xulqida va hayot tarzida aks etuvchi qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar majmuidir. Ekstremal vaziyatlarda yoshlar ko'pincha o'z madaniy ildizlariga suyanishga harakat qiladilar. Masalan, kuchli ijtimoiy birdamlik va mahalla institutlari mavjud bo'lgan jamiyatlarda yoshlar og'ir holatlarda ham ijtimoiy mas'uliyatni his qilgan holda harakat qilishadi. Ular ota-onaning so'zini tinglaydi, jamiyatda yordamga muhtojlarga ko'maklashadi va milliy qadriyatlarni saqlab qolishga intiladi. Aksincha, individualizm va raqobatga asoslangan madaniyatlarda esa xavfli vaziyatlarda yoshlar o'z manfaatini himoya qilishga urinib, jamiyat bilan aloqani zaiflashtirishi mumkin.

Mazkur maqolada taklif etilayotgan ekstremal psixologik yordam modeli, asosan, statik tuzilishga ega bo'lib, u faqatgina ma'lum bir holat yuzaga kelganda — ya'ni, mijozning holati, individual xususiyatlari, ehtiyojlari va psixologik muammolari aniqlangandan so'ng faol ishlay boshlaydi. Bunda modelning barcha elementlari o'zaro integratsiyalashgan holda harakatga keladi va natijada u dinamik tizimga aylanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning oltinchi ustuvor yo'nalishi — "Milliy manfaatlardan kelib chiqib global muammolarga tizimli yondashuv" doirasida belgilangan 79–82-maqсадlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo'lganda aholiga psixologik yordam ko'rsatish mexanizmlari muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Tadqiqotning usullari. Ekstremal vaziyatlarda inson xulq-atvori, xususan, yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasi va moslashuvchanligi haqida turli ilmiy maktablarda qator izlanishlar olib borilgan. P. Bourdieu "ijtimoiy maydon" nazariyasida shaxsning harakatlari bevosita u yashayotgan ijtimoiy muhit, uning iqtisodiy va madaniy kapitaliga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ekstremal holatlar mavjud muhitdagi tengsizliklarni yanada keskinlashtirib, ayniqsa, yosh avlodning psixologik va ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek olimlaridan G'ulomova (2022) va Qo'chqorova (2023) yoshlarning ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarini mahalliy sotsiomadaniy kontekstda tahlil qilib, aynan madaniy

jihatlarining shaxsiy qarorlar qabul qilishga ta'sirini chuqur ochib bergan. Ularning tadqiqotlari xalqaro metodologiyalarni mahalliy holatga moslashtirish bo'yicha qimmatli tajriba sifatida qayd etiladi.

Psixologik yordam ko'rsatish jarayoni ko'plab shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir holatda yordam shakli va mazmuni ana shu omillarga qarab belgilanadi. Bunga shaxsning individual psixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, joriy emotsional holati, u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh (masalan, yoshi, etnik yoki madaniy fond), xarakter tipologiyasi, hodisaning og'irlik darajasi hamda travmatik voqeadan so'ng o'tgan vaqt kabi omillar kiradi.

Ekstremal psixofiziologik yordam — bu inqiroz yoki favqulodda vaziyat natijasida psixologik zarar ko'rgan shaxs yoki guruhlarining ruhiy holatini tartibga solishga qaratilgan, professional psixologik yondashuvlarga asoslangan qisqa muddatli amaliy chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu yondashuv odatda favqulodda holatlarning o'zi bilan emas, balki shaxsning bu holatlarga bergan psixologik javobi bilan ishlaydi. Shuning uchun ham bu turdagi yordamning asosiy vazifalari — jabrlangan shaxs ruhiy holatini barqarorlashtirish, kuchli emotsional reaksiya va og'riqni yumshatish, shuningdek uning avtonom faoliyatini qayta tiklashdan iborat bo'ladi [Fedunina N.Yu.].

Zamon talablari va real hayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish uchun maxsus tayyorlangan psixologlar jamoasini favqulodda vaziyatlarda joyiga yuborish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Masalan, L. Krok o'z tadqiqotlarida favqulodda holatlarning ilk bosqichlarida, voqea sodir bo'lgan hududda bevosita psixologik yordam olgan jabrlanuvchilar keyinchalik ruhiy muammolar va asoratlarni sezilarli darajada kamroq boshdan kechirishlarini alohida ta'kidlaydi.

Olimlarning nazaryasini ham ta'riflab o'tadigan bo'lsak, Anthony Giddens o'zining strukturatsiya nazariyasida shaxsiy xatti-harakatlar ijtimoiy tuzilmalar bilan o'zaro doimiy aloqada ekanligini ko'rsatadi. Bu nazariy asosdan kelib chiqib, yoshlarning ekstremal vaziyatlardagi xatti-harakatlari nafaqat individual psixologiyaga, balki ijtimoiy institutlarning holatiga ham bog'liq ekani isbotlanadi.

Yana bir muhim nazariy asos Ulrich Beck tomonidan ilgari surilgan "xavf jamiyati" konsepsiyasi. Unga ko'ra, zamonaviy jamiyat doimiy xavf va noaniqlik holatlarida yashaydi. Ayniqsa, yoshlar ushbu xavflarga eng sezgir qatlam bo'lib, ular tezda radikallasuv, begonalashuv yoki ijtimoiy chekinish kabi holatlarga moyil bo'lib qolishadi.

Yuqoridagi nazariy manbalar, shuningdek, BMT, UNESCO va UNICEF tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, ekstremal vaziyatlarda yoshlar bilan ishlash metodikasini rivojlantirishda asosiy tayanch nuqtalari hisoblanadi.

Natijalar. Ushbu tadqiqotda ekstremal vaziyatlarda yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini o'rganish maqsadida bir nechta yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, mavzu doirasida mavjud ilmiy manbalar, dolzarb statistik ma'lumotlar va real hayotiy misollar asosida tahlil olib borildi. Bu yondashuv, bizga nazariy bilimlar va amaliy holatlarni taqqoslab, aniq xulosalarga kelishga yordam berdi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida deskriptiv (ta'riflovchi) yondashuv tanlandi. Sababi, biz bu yerda muayyan jarayonni o'zgartirish emas, balki uni tushunish va tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Shuningdek, taqqoslash va kuzatish metodlari orqali turli ekstremal holatlardagi yoshlarning ruhiy va ijtimoiy xatti-harakatlariga qarab, qanday o'zgarishlar yuz berishini o'rganishga harakat qildik.

Tadqiqot davomida ayniqsa, ekstremal sharoitda (masalan, tabiiy ofatlar, ijtimoiy notinchlik, pandemiya, stressli holatlar) yoshlar qanday psixologik holatga tushishini aniqlash uchun mavjud ilmiy modellar (masalan, krizis psixologiyasi va stress nazariyalari) bilan tanishib chiqildi. Shuningdek, ayrim hollarda real vaziyatlarda psixologlar tomonidan qo'llanilgan algoritmlar ham o'rganildi. Bu esa, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham foydali bo'ldi.

Tadqiqot subyekti sifatida ekstremal holatga tushib qolgan shaxslarning umumiy psixologik holatlari va ijtimoiy xulq-atvori ko'rib chiqildi. Ob'yekt esa, bu shaxslarning turli omillar (iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy) ta'sirida qanday reaksiyalar berishi bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson kognitiv tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar, odatda, sezgi, e'tibor, tafakkur, xotira kabi asosiy psixik funksiyalar darajasida sodir bo'ladi. Bunday holatlarda idrok jarayonining buzilishi va natijada voqelikni noto'g'ri baholash, situatsiyani adekvat anglay olmaslik holatlari ko'p uchraydi. Bu esa, o'z navbatida, insonning qaror qabul qilish, o'zini nazorat qilish, xatti-harakatlarni tartibga solish kabi muhim psixologik mexanizmlarida sezilarli darajada izdan chiqishlarga olib keladi.

Shuningdek, ekstremal holatlarda psixosomatik yoki somato-vegetativ reaksiya belgilarining kuchaygani kuzatiladi. Ularga quyidagilar kiradi: uyqu rejimining buzilishi, ishtahaning keskin kamayishi yoki aksincha ortishi, tana vaznining yo'qolishi (yoki tez ortishi), umumiy energiya darajasining pasayishi, yuz terisining haddan tashqari oqarishi yoki qizarishi, ortiqcha terlash, mushaklar tonusining oshib ketishi, titroq, tremorlar yoki ularning aksi bo'lgan letargik holatlar. Bu belgilar organizmning favqulodda psixologik zo'riqishga fiziologik reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulq-atvor sohasida esa insonning odatiy va maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tizimi buziladi. Ko'pincha, bu holatlarda shaxs o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmay qoladi, ya'ni u beqaror, oldindan rejalashtirilmagan, spontan yoki mutlaqo passiv holatlarga o'tib ketadi. Bunday

holat “reaktiv so‘nish” (reaksiyaning yo‘qolishi) deb talqin qilinadi va u psixik muvozanatning izdan chiqishidan darak beradi.

Agar insonning ijtimoiy munosabatlar, muloqot va o‘zaro ta’sir doirasidagi holatlarini tahlil qilsak, ushbu sohalarda ham muhim o‘zgarishlar yuzaga keladi. Masalan, bunday paytda tajovuzkorlik kuchayadi, shaxs boshqalarni ayblashga moyil bo‘ladi, ijtimoiy ajralish, begonalashuv, nizolar va muomala o‘rniga qarama-qarshilik holatlari tez-tez yuz beradi. Bu esa ekstremal vaziyatlarning inson ruhiy dunyosiga qanday darajada ta’sir qilishi mumkinligini aniq ko‘rsatib beradi.

Muhokama. Yuqori darajadagi an’anaviylik va kollektiv madaniyatga ega hududlarda (masalan, qishloq joylarda yoki mahalla tuzumi faol bo‘lgan jamiyatlarda) yoshlar ekstremal vaziyatlarga ijobiyroq munosabat bildirgan. Ular jamiyat bilan bog‘liqlikni saqlagan, yordam berish, birdamlik ko‘rsatish kabi qadriyatlarni faol namoyon etgan.

Iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan yoshlar orasida stress, tushkunlik va norozilik darajasi yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, pandemiya davrida ishlash, o‘qish yoki oilaga moddiy yordam berish imkoniyati yo‘qolgan hollarda yoshlar ijtimoiy beqarorlikka ko‘proq moyillik ko‘rsatgan. Boshqa tomondan, iqtisodiy barqarorlikka ega oilalarda ulg‘aygan yoshlar bu davrni nisbatan ijobiy va konstruktiv yo‘llar bilan yengib o‘tgan.

Iqtisodiy barqarorlik yoki beqarorlik yoshlar ongida turli xil psixologik holatlarni yuzaga keltiradi. Iqtisodiy tangliklar davrida ishsizlik darajasining ortishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarining kamayishi yoshlar orasida xavotir, tushkunlik, umidsizlik kabi holatlarni kuchaytiradi. Bunday sharoitda ular noan’anaviy yo‘llarni tanlashi, qonunbuzarlikka moyil bo‘lishi yoki chet ellarga noqonuniy yo‘llar bilan ketishni maqsad qilishi mumkin. Biroq, iqtisodiy imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, yoshlar o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga harakat qiladi, innovatsion g‘oyalar bilan chiqadi va jamiyatda faol bo‘lishga intiladi.

Ijtimoiy tizimlar ya’ni davlat siyosati, ta’lim tizimi, oilaviy institutlar, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati yoshlarning ekstremal vaziyatlarga nisbatan munosabatini belgilovchi asosiy mexanizmlardan biridir. Kuchli ijtimoiy tizim mavjud bo‘lgan jamiyatlarda yoshlar og‘ir holatlarga nisbatan ko‘proq ijobiy yondashadi, o‘zaro yordam mexanizmlari paydo bo‘ladi, ijtimoiy birdamlik ortadi. Ta’lim tizimi, ayniqsa, psixologik tarbiya va muammolarga chidamlilikni o‘rgatuvchi mexanizmlarni o‘z ichiga olgan hollarda, yoshlar o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydi, aksincha, mustahkam irodali, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Shuningdek, ekstremal holatlar har doim ham salbiy oqibatlariga olib kelmaydi. Ular ayrim hollarda yoshlarning ongida keskin o‘zgarishlar yasab, ularni ertangi kun haqida jiddiy o‘ylashga undaydi. Bu jarayonda madaniy meros, iqtisodiy ta’minot va ijtimoiy muhit o‘zaro uzviy bog‘liq

holda ishlaydi. Shunday ekan, yoshlar ijtimoiy xulq-atvorini faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholash emas, balki uni shakllantirayotgan ijtimoiy mexanizmlarni chuqur o‘rganish zarur. Ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va ishonchli ijtimoiy muhit mavjud bo‘lgan jamiyatda yoshlar har qanday ekstremal vaziyatda ham mustahkam pozitsiyada turishni o‘rganadi.

Ekstremal vaziyatlarda yuzaga keladigan keskin affektiv holatlar, vahima (panik) sindromlari, fobik reaksiyalar yoki intoksikatsiyaga bog‘liq tajovuzkorlik holatlarida samarali psixologik yordam ko‘rsatish muhim vazifa hisoblanadi. Bunday holatlarda psixologik yondashuvning asosiy maqsadi muayyan psixik reaksiyaning xarakteri va uning paydo bo‘lish asoslarini hisobga olgan holda, tezkor va bosqichma-bosqich yordam algoritmlarini ishlab chiqish va qo‘llashdir.

Tadqiqotda asosiy e‘tibor psixologik ta’sir o‘tkazishning samarali texnikalari va muayyan ekstremal vaziyatga moslashgan amaliy yondashuvlarga qaratilgan. Natijada, favqulodda vaziyatlarda shoshilinch psixologik yordam ko‘rsatishning to‘rt bosqichli umumiy algoritmi ishlab chiqildi va har bir alohida holat uchun maxsus strategik ketma-ketliklar taklif qilindi.

O‘tkir affektiv reaksiyalar yuz bergan vaziyatlarda psixologik yordam algoritmi quyidagi oltita bosqichdan iborat bo‘ladi:

- trigger (yoki turtki) omillarning neytrallashuvi;
- holat intensivligining dastlabki baholanishi;
- vegetativ belgilar (nafas, yurak urishi va h.k.) darajasining tezkor monitoringi;
- relaksatsion usullarni qo‘llash;
- ong chegaralarini kengaytirish orqali muvozanatga qaytarish;
- Panik holat (vahima) yuzasidan yordam algoritmi esa quyidagicha tuzilgan:
- tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarning ta’sirini zararsizlantirish;
- holat og‘irligini aniqlash va sabab gipotezasini shakllantirish;
- nafasni boshqarish texnikasi;
- mushaklarni bo‘shashtirish (progressiv relaksatsiya);
- vaziyatga nisbatan muvozanatli munosabatni tiklashga qaratilgan tavsiyalar.
- Fobik reaksiyalarda esa quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:
- fobiyaning keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bloklash;
- psixik zo‘riqlash darajasini aniqlash;
- kinestetik usullar yordamida tana holatini tiklash;
- vizualizatsiya orqali ongda muqobil tasavvurlar hosil qilish;
- odatiy tana va nafas holatini tiklash;

Umuman olganda, favqulodda holatlarda psixologik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning amaliy faoliyatini algoritmlashtirish bevosita ularning harakatlaridagi aniqlik, izchillik va tibbiy-psixologik tizimlar bilan o'zaro koordinatsiyani ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Bunday tizimli yondashuv jabrlangan shaxsga tezkor, samarali va individual psixologik yordam ko'rsatish imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekstremal vaziyatlarda yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori ularning atrofidagi madaniy muhit, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy institutlarning barqarorligiga bevosita bog'liq. Madaniy qadriyatlar mustahkam bo'lgan jamiyatlarda yoshlar ham ruhiy, ham ijtimoiy jihatdan bardam bo'lib qoladi. Iqtisodiy yetishmovchilik esa radikal qarorlar, ishonch yo'qolishi va passivlikni keltirib chiqaradi. Kuchli ijtimoiy tizim esa, aksincha, yoshlarni himoyalaydi, ularga ishonch bag'ishlaydi va salbiy holatlarni yengib o'tishda yordam beradi.

Takliflar:

- Yoshlar uchun psixologik tayyorgarlik dasturlarini yaratish: Maktabdan boshlab hayotiy muammolarga qarshi kurashishga o'rgatuvchi treninglar joriy etilishi lozim.
- Mahalla va jamiyat institutlarini mustahkamlash: Ayniqsa, krizis davrida yoshlarni jamiyatga bog'laydigan mexanizmlarni kuchaytirish muhim.
- Iqtisodiy qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish: Yigit-qizlar uchun bandlik dasturlari, startaplar uchun grantlar va ta'lim kreditlari taklif etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.F. Usmonov, Z.S.Elov. Suicide – as a global problem facing humanity. web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb. 2022 349354
2. O.R.Avezov. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT 3 (No. 13), 145-150
3. Olimov L.Y., Mahmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
4. Otamuradov S. Globallashuv va milliy ma'naviy xavfsizlik. -Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2013.
5. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Navro'z, 2015.
6. Umarova F., Norqulov S. Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanishlar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021.